



**O'YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING
YETAKCHI FAOLIYATI SIFATIDA**

Egamberdiyev Farhod.

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti. Ijtimoiy fanlar fakulteti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

Axmadova Bahora Bahromovna.

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi I-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o'yinning o'рни beqiyosdir. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda maktabgacha yosh davri insonning rivojlanishida eng muhim va poydevor bosqich hisoblanadi. Ana shu yoshda bolaning butun hayoti, voqelikni anglash, bilim olish va ijtimoiy tajriba orttirishda o'yin yetakchi faoliyat turi sifatida maydonga chiqadi. O'yin bola uchun shunchaki vaqt o'tkazish yoki hordiq emas, balki uning ongini, irodasini, axloqiy fazilatlari va hamkorlikka oid ko'nikmalarini shakllantiruvchi asosiy vositaga aylanadi. Maktabgacha yoshda bolaning asosiy faoliyati o'yin bo'lib, ana shu faoliyat orqali u atrof-muhit bilan bevosita tanishadi, uni o'zicha qayta o'zlashtiradi, bolalarcha talqin va ijodiy yondashuv bilan idrok qiladi. O'yin orqali har bir bola o'zini kattalar qatoriga qo'yib ko'radi, har xil ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, muloqot qilishga, qaror qabul qilishga, o'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qiladi. Natijada hayotda o'z o'rnini topish, murakkab vaziyatlarni yecha olish, boshqalar bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilish, ijtimoiy me'yor va qoidalarni anglash kabi muhim hayotiy sifatlarning asosi qo'yiladi.

Kalit so'zlar: o'yin, maktabgacha yosh, yetakchi faoliyat, bola rivoji, muloqot, ijodkorlik, axloqiy sifatlar, mustaqil fikrlash, ijtimoiylashuv, maktabgacha ta'lim.

Аннотация: Роль игры в жизни детей дошкольного возраста несравнима. В психолого-педагогических исследованиях дошкольный возраст считается важнейшим и фундаментальным этапом развития человека. В



этом возрасте игра выходит на первый план как ведущий вид деятельности на протяжении всей жизни ребенка, в понимании реальности, приобретении знаний и социальном опыте. Игра становится для ребенка не просто способом провести время или досугом, а главным инструментом формирования его сознания, воли, нравственных качеств и навыков сотрудничества. Главной деятельностью ребенка в дошкольном возрасте является игра, посредством которой он непосредственно знакомится с окружающей средой, переосмысливает ее по-своему, воспринимает с детской интерпретацией и творческим подходом. Через игру каждый ребенок пытается поставить себя на место взрослых, освоить различные социальные роли, пытается общаться, принимать решения и управлять своими эмоциями. В результате закладывается фундамент важных жизненных навыков, таких как поиск своего места в жизни, разрешение сложных ситуаций, общение с другими, сотрудничество и понимание социальных норм и правил.

Ключевые слова: игра, дошкольный возраст, лидерские качества, развитие ребенка, общение, творчество, моральные качества, самостоятельное мышление, социализация, дошкольное образование.

Abstract: *The role of play in the life of preschool children is incomparable. In psychological and pedagogical research, the preschool age period is considered the most important and fundamental stage in human development. At this age, play comes to the fore as a leading type of activity in the child's whole life, in understanding reality, acquiring knowledge and gaining social experience. Play becomes not just a way to spend time or leisure for a child, but the main tool for forming his consciousness, will, moral qualities and cooperation skills. The main activity of a child in preschool age is play, through which he directly gets acquainted with the environment, re-absorbs it in his own way, perceives it with a childish interpretation and creative approach. Through play, each child tries to put himself in the shoes of adults, master various social roles, tries to communicate, make decisions, and manage his emotions. As a result, the foundation of important life*



skills is laid, such as finding one's place in life, resolving complex situations, communicating with others, cooperating, and understanding social norms and rules.

Keywords: play, preschool age, leadership activities, child development, communication, creativity, moral qualities, independent thinking, socialization, preschool education.

Kirish

Bolalik davri hayajonli, beg'ubor va fantaziyalarga boy davr bo'lib, bola ayniqsa o'yin jarayonida yangi bilimlarni egallaydi, atrof-muhit haqida tasavvurini boyitadi, voqelikni o'rganib, uni o'ziga xos shaklda qayta tiklaydi, unga ijodiy yondashadi. O'yin orqali atrofdagi buyumlar va obyektlarning vazifasini va funksiyasini chuqur o'rganadi. Ana shu jihatlar o'yin faoliyatini maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining bosh va yetakchi faoliyati sifatida ajralib turishini ta'minlaydi. O'yin bolaning barcha psixik jarayonlarini: tafakkurini, xotirasini, diqqatini, tasavvur va his-tuyg'ularini rivojlantiradi, uni faol va mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'yin jarayonida bola biror buyumni yaratish, uni boshqacha qulaylashtirish, vazifasini o'zgartirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish yo'llarini izlaydi. Bola doimo ixtirochilik va yaratuvchanlik kayfiyati bilan harakat qiladi. Shu sababli maktabgacha yoshda o'yin rivojlanishning nafaqat vositasi, balki manbai ham bo'lib xizmat qiladi. O'yin faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, bola uni o'z ixtiyori bilan, qiziqishi va ehtiyoji asosida amalga oshiradi. O'yin davomida bola o'zini to'liq erkin va bexavotir his qiladi, barcha harakatlari ichki ehtiyoj va qiziqish tufayli shakllanadi. Bu esa bolaning psixik va shaxsiy rivojlanishi uchun eng qulay va samarali muhit yaratadi [1, 45].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Maktabgacha yoshdagi bolalar katta yoshdagilarga taqlid qilishga, ular faoliyatining mohiyatini anglashga qiziqadilar. O'yin orqali ular murakkab mehnat jarayonlarini, ijtimoiy rollarni, muloqot va xulq-atvor normalarini mustaqil o'zlashtiradilar. Bu yoshdagi bolalarda hayotiy tajriba va bilimlar ko'plab o'yinlarda aniq namoyon bo'ladi. Masalan, "doktorlik o'yini"da bola shifokor rolini bajaradi, bemorga yordam ko'rsatish, uni muomala qilish orqali o'rganadi. "Do'kondor"



o'yinida puldan foydalanish, hisob-kitob, xaridor va sotuvchi o'rtasidagi munosabatlarni anglaydi. O'yin har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini, individual qobiliyatlarini yorqin namoyon etish imkonini beradi. Kimdir harakatli, kimdir o'ylovchan, boshqasi rahbar bo'lib, boshqalarni uyushtirishga harakat qiladi. O'yin jarayonida ijtimoiylashuvning asosiy bosqichi ro'y beradi, bola jamoada o'z o'rnini topish, hamkorlik, do'stlik, tinch muhitda fikr almashish, yordam berish, kelishish kabi ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'ladi. O'yin orqali bola o'z hayotini ijtimoiy tajriba bilan boyitadi, o'zining axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishiga erishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin turlarining xilma-xilligi ularning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli o'yinlar bolalar salomatligini mustahkamlashga, jismoniy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilsa, syujetli-rolli o'yinlar esa ularning ijtimoiy-ta'limiy ko'nikmalarini boyitadi, hayotiy tajribani kengaytiradi va axloqiy sifatlarni (ochiqlik, to'g'rilik, mehr-shafqat, samimiylik) shakllantirishga yordam beradi [2, 22].

].Muhokama va natijalar

Maktabgacha yoshdagi bola o'yin paytida voqelikni ishlovchi, uni qayta aks ettiruvchi, tajriba orttiruvchi va uni mustaqil anglab yetuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Bola o'yin mobaynida turli rollarni bajaradi, har xil harakat turlarini o'zlashtiradi, muayyan bilimlarni, tajribani, atrof-muhit voqealari borasidagi tasavvurlarini boyitadi. O'yin faoliyati jarayonida bola muloqotga kirishish, o'z fikrini aniq ifoda etish, savol-javob orqali bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, qisqa vaqt ichida to'g'ri qaror qabul qilish, qiyin vaziyatlardan chiqish, mustaqil harakat qilish, etakchilik fazilatlarini rivojlantirish, sog'lom raqobat va do'stona munosabatlar o'rnatishni o'rganadi. O'yin vaqtida bolaning nutqi, tafakkuri, tushunchalari, tasavvurlari va hayolot olami o'sadi. U turli xil narsalarni taqqoslash, solishtirish, tasniflash, xotirada mustahkamlash, ko'rsa va eshitsa uni mustaqil qayta ayta olish, syujet yaratish, yangi ssenariylar to'qish, voqealarga o'zgacha yechim topish imkoniyatini o'zlashtiradi. Bu esa bola tafakkurini chuqurlashtiradi va mustahkam asos tayyorlaydi. O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda eng muhim bilim va ko'nikmalarni



shakllantiradi. Bola kundalik hayotida, o'yin maydonida, o'qituvchi va tengdoshlar bilan munosabatda, oilada o'rganganlarini ijodiy tarzda boyitadi. O'yin tashkil etilgan holatlarda bola tabiiy ravishda, majburliksiz, erkin holda tajribalar o'tkazadi, voqeliklarni sinchiklab kuzatadi, ularni o'z tasavvurida sinaydi va yoqlaydi. O'yin orqali bola bilimlar olamini mustahkamlaydi, ong va tafakkur imkoniyatlarini takomillashtiradi [3,10].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin hayotining asosiy mohiyati – u hayotga yaxlit tarzda tayyorlaydi, ijtimoiy-axloqiy va intellektual sifatlarni rivojlantiradi. Bola biror-bir murakkab an'anani, hayotiy tajribani bevosita tushunmasa ham, o'yin orqali shu jarayonlarni bosqichma-bosqich o'zlashtiradi. O'yin natijasida bola kattalar jamiyatidagi harakatlar va munosabatlarni modellashtiradi, ularni o'z hayotiga tatbiq etishga harakat qiladi. O'yin faoliyatini to'g'ri uyushtirishda metodik yondashuv, o'quvchining yosh imkoniyatlari, individual xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi, tarbiyachi yoki ota-ona o'yin uchun qulay sharoit yaratish, bola fikrini inobatga olish, tengdoshlar bilan yaxshi muhitni shakllantirish, bolaning mustaqil harakat qilish va erkin fikr bildirishiga ko'maklashishi kerak. O'yin maydonchasining ochiq, xavfsiz, har xil o'yinlarni o'tkazishga qulay bo'lishi talab qilinadi. O'yinga zarur buyumlar, qurollar, liboslar va boshqa vositalar ham bolalarni o'zi tomonidan yaratilishiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha davrdagi bolalar uchun o'yinlar ularni jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar bolada mustaqillik, qat'iyatlilik, mas'uliyat, etakchilik, hamkorlik, raqobatbardoshlik, bag'rikenglik va o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlarni shakllantiradi. O'yin faoliyati bola tafakkuri, nutqi, harakat va xatti-harakatlarini uyg'un ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. O'yinlar pedagogika va bolalar psixologiyasi fanida alohida o'rganiladi. Ko'plab olimlar, pedagog va psixologlar maktabgacha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat aynan o'yin ekanini isbot etganlar. O'yin faoliyati boshqa har qanday faoliyat turlaridan farqli o'laroq, bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning mohiyati, manfaati, ehtiyoji, tajribasi va dunyoqarashi asosida rivojlanadi. Bola faqat



ota-onaning emas, balki jamiyat va tengdoshlarining ham hayotiy tajribasini o'zlashtiradi, norasmiy muloqot shakllarida, beg'am va mustaqil harakatda yangi axborotlarni egallaydi. Bu esa katta yoshdagi odamlar uchun ham o'z hayot yo'li va faoliyatini to'g'ri tanlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [4, 65].

O'yin faoliyati orqali bolalarda ijtimoiy muhitga moslashish, mehnat jarayonini anglash, yangi bilim egallash, tajriba orttirish, ijtimoiy rollarni o'rganish, o'ziga bo'lgan ishonch, erkin muomala, tanqidiy va mantiqiy tafakkur, og'zaki va yozma nutq, tasavvur va kreativlik, yetakchilik ko'nikmalari, yordam va birdamlik fazilatlari chuqurlashib boradi. Bola dunyosida o'yin vositasida tadbirkorlik, tashabbus, mustaqil harakat qilish, biror murakkab muammoni original yondashuv bilan hal etish, o'z fikrini dadil bildirishi, etakchi va yordam beruvchi bo'lishi, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, qiyin vaziyatlarda sinchikovlik, sabrli va bardam bo'lish, g'alabalar natijasida o'z yutuqlaridan mamnunlik kabi sifatlar shakllanadi. Agar maktabgacha yoshdagi bola ongli va to'g'ri tashkil etilgan o'yin orqali rivojlantirilsa, uning yetuk, fikrlovchi, mas'uliyatli, o'ziga ishonadigan, tanho emas, balki jamoada ishlashga, yordam berishga tayyor shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratiladi. Bunday bolalar kelgusida maktab bosqichidagi ta'limga bemalol moslasha oladi, o'z sohasida yetakchi, tashabbuskor va ijtimoiy faol yoshlar sifatida shakllanadilar [5, 30].

O'yin faoliyati bola uchun tabiiy zarurat bo'lib, uni majburan emas, balki ichki ehtiyoj yig'indisi sifatida amalga oshirish kerak. O'yin bolaning bolaligiga mos, yoshiga mos, jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga mos holda uyushtirilsa, tarbiyachi va ota-ona bu sohada ilmi, tajribasi va mehrini ayamasi lozim. O'yin materiallaridan to'g'ri foydalanish, bolani rag'batlantirish, birgalikda faol o'ynash, yosh o'ziga xosligini inobatga olish, yangi o'yinlarni ixtiro qilishga rag'batlantirish orqali bolaning individualligi, mustaqil fikr yuritishi va o'ziga xos qobiliyatlari namoyon bo'ladi. O'yin uchun bola o'z ixtiyorida bo'lgan barcha vositalardan foydalanadi. Hattoki oddiy qum, shag'al, gugurt, yog'och cho'p, qog'oz, suv, soya, hayvonot yoki o'simlik dunyosini o'yin vositasi qilib oladi. Bu esa bolaning ko'z o'ngida borliqning chinakam va yorqin suratini namoyon etadi. Bola predmetli-



moddiy muhitni, tabiat hodisalarini, hayvonot olamini o'z fantaziyasi va ijodi bilan boyitadi, real jamiyatda kuzatiladigan harakat va munosabatlarni o'z hayotiga tatbiq etadi. Ana shunday faoliyat natijasida bolaning yangi muammolarni hal etish, mustaqil qaror chiqarish, o'z bilimni amaliyotga tadbiq qilish, shaxs sifatida shakllanish va rivojlanishda o'yinning o'rni beqiyosdir. O'yin jarayoni bolaning ruhiy va jismoniy sog'ligini mustahkamlash, ham fikran, ham jismonan chiniqish, harakat reflekslarini shakllantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, mustaqil va jamoaviy ishga tayyor bo'lish, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati ekanligini inobatga olgan holda bolalar bog'chalari, bolalar markazlari, oilaviy muhitda ko'proq jamoaviy va ijodiy o'yinlarga alohida e'tibor berish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, an'anaviy va interaktiv shakllarda tashkil etish, bolaning zamonaviy hayotga tayyorgarligini kuchaytiradi. Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatining bosh rolga qo'yilishi sababli bolalar hayotga faollik, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ijtimoiy moslashuvchanlik, nutq rivoji va boshqalarda yuqori natijalarga erishmoqda. Bola uchun o'yin – hayot maktabi. O'yin davomida bola taxminan kelajak hayotini sinovdan o'tkazadi, kattalar jamiyatidagi rolini pishitadi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, vatanparvarlik, insoniylik, yurtgushlik kabi muhim sifatlarga ega bo'ladi. O'yinlarda muvaffaqiyat qozonish, pasta yoki yuqori natija ko'rsatish, do'stlar bilan baham ko'rish, yordam so'rash yoki yordam berish, ijobiy va salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish bolaning ruhiy-psixologik hamda ijtimoiy-psixologik shakllanishini kuchaytiradi. O'yin har doim bola hayotida quvonch, g'ayrat, zavq, omad va orzular manbai bo'lib qolaveradi. Bolalikning yorqin va esda qolarli onlari har doim o'yinlar bilan bog'liq bo'ladi. O'yin orqali hayotiy saboqlar, axloqiy fazilatlar, yangi bilim va tajribalar, ijtimoiy bo'lish, yordam, bag'rikenglik, sog'lom raqobat, ishonch va do'stlik fazilatlari shakllanadi. O'yin faoliyati pedagogika va bolalar psixologiyasida hamon eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiyotida uning yetakchi faoliyat ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. O'yin orqali har bir bola o'z hayotini mazmunan va



sifat jihatidan boyitadi, mustaqil, faol va baxtli bolalikka intiladi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning orzu-umidlari, bolalik quvonchlari, katta hayotga boshlangan ilk qadamlari uchun mustahkam va ishonchli tayanchdir [6, 12].

Xulosa

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida yetakchi faoliyat turi bo‘lib, uning orqali bola hayotga intilish, bilim olish, ijtimoiy muhitga moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinning bola hayotidagi asosiy ahamiyati – shaxs sifatida ijodiy, mustaqil, sog‘lom, axloqan toza, ijtimoiy moslashgan, tafakkuri yuqori yoshlarni shakllantirishidadir. Maktabgacha yoshda o‘yin orqali bola o‘z orzular olamida, o‘zining kichik jamiyatida faol ishtirokchi, etakchi va ijodkor sifatida kamol topadi. O‘yin bolaning tabiiy ehtiyojini qondiradi va hayot uchun zarur bilim, tajriba, ko‘nikma va fazilatlarni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva S.X. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020, 45-78-betlar.
2. Zokirova Z. “Bolalar psixologiyasi”. Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2019, 22-50-betlar.
3. Shirinova M. “Maktabgacha yoshda ijodiy o‘yinlar”. Samarqand, 2021, 10-35-betlar.
4. Allamurotova G.X., Rasulova A.G. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va o‘qitish metodikasi”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018, 65-90-betlar.
5. Vygotskiy L.S. “Bola psixologiyasi va rivojlanishi”. Toshkent, 2015, 30-60-betlar.
6. “Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘yin faoliyati” (ilmiy maqolalar to‘plami), Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2022, 12-48-betlar.
7. www.ziyou.net/uz – O‘zbekiston milliy ta’lim portali, maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyati haqida metodik tavsiyalar bo‘limi, 2024 (onlayn manba).